

## PREKLAMPSIYANI ERTA TASHXISLASH VA OLDINI OLISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TADQIQOT NATIJALARI

Umarova Yulduzxon Quyoshjon qizi

Central Asian Medical University

Akusher ginikologiya, Ardinatura

e-mail: yulduzxonqoraboyeva89@gmail.com

+99899-535-25-27

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18859382>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola homiladorlik davridagi eng xavfli asoratlardan biri bo'lgan preeklampsyani (PE) I trimestrda barvaqt tashxislash va samarali profilaktika qilishning zamonaviy yondashuvlariga bag'ishlangan. Ushbu maqolada preeklampsiyaga olib keluvchi xavf omillarini aniqlash, ularni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari va profilaktika usullari muhokama qilinadi. Maqolada preeklampsyaning asosiy xavf omillari, shuningdek, zamonaviy tibbiyotda qo'llaniladigan diagnostik va terapevtik usullar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar va xalqaro tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Preeklampsiya bilan bog'liq xavflarni bartaraf etish uchun multidissipliner yondashuvlar, shuningdek, profilaktik choratadbirlar va zamonaviy tibbiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Bu maqola preeklampsyani erta aniqlash va davolashga qaratilgan yangi strategiyalarni ishlab chiqishda va homilador ayollar uchun xavfning oldini olishda asosiy manba bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Preeklampsiya, skrining, algoritm, xavf omillari, profilaktika, tibbiy yondashuvlar, homiladorlik, tashxis, davolash, Dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM)

**Maqolaning dolzarbligi.** Preeklampsiya — bu homiladorlikning 20-haftasidan so'ng arterial qon bosimining oshishi ( $\geq 140/90$  mm.sim.ust) va proteinuriya (yoki nishon-a'zolar zararlanishi) bilan kechuvchi, homiladorlik davrida rivojlanadigan ona va bola salomatligiga jiddiy xavf soladigan patologik holatdir. Ushbu kasallikning asosiy xususiyatlari qon bosimining oshishi va o'zgarishlarning urug'lantirish va homiladorlik jarayoniga ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Preeklampsiya, asosan, homiladorlikning ikkinchi yarmining boshida yuzaga keladi va bu holat onaning sog'lig'iga jiddiy xavf solishi mumkin. Preeklampsiya nafaqat homilador ayollar uchun, balki ularning farzandlari uchun ham xavfli bo'lishi mumkin. Ushbu holatning erta aniqlanishi va davolash usullarini ishlab chiqish bugungi kunda tibbiyotning dolzarb muammolaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, PE homiladorliklarning 2-8% ida uchraydi va onalar hamda perinatal o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Preeklampsiya nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham katta tahdid solmoqda. Maqolada preeklampsyaning rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillari, ularni erta aniqlash va bartaraf etish usullari, shuningdek, bu kasallikni davolashning zamonaviy yondashuvlari haqida so'z boradi. Eklampsiya o'z navbatida jiddiy asoratlarga, jumladan, miya qon aylanishining buzilishi, o'pka shishi, yurak-qon tomir tizimi buzilishlariga olib keladi. Eklampsiya bemorning darhol shifoxonaga yotqizilishini va intensiv davolashni talab qiladi.

**Preeklampsyaning asosiy xavf omillari.** Preeklampsiya va eklampsiya xavfi yoshlikda yoki 35 yoshdan keyin homilador bo'lgan ayollarda, shuningdek, ko'p homilalik yoki surunkali kasalliklari (diabet, buyrak kasalliklari) bo'lgan bemorlarda yuqori bo'ladi. Preeklampsyaning rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillari turlicha bo'lishi mumkin. Bular orasida genetik omillar, oldingi homiladorlik tarixida bo'lgan kasalliklar, semizlik, yuqori qon bosimi va yosh kabi faktorlar mavjud. Preeklampsiya, asosan, birinchi homiladorlikda, yuqori

yoshli ayollarda yoki semizlikdan aziyat chekayotgan homiladorlarda ko'proq uchraydi. Shuningdek, preklampsiyaning rivojlanishiga olib keluvchi boshqa omillar sifatida, siydikdagi oqsil miqdorining oshishi, qon tomirlarining notog'ri ishlashi va immun tizimning o'zgarishi ko'rsatiladi.

**Profilaktika choralari.** Preklampsiyaning oldini olish uchun homiladorlik davrida muntazam tibbiy nazoratdan o'tish, qon bosimini o'lchash, oziqlanish va hayot tarzini to'g'ri boshqarish muhimdir. Aspirin kabi dorilar past dozalarda qo'llanilishi ba'zi yuqori xavfli ayollarda profilaktika chorasi sifatida taklif qilinadi. Qon bosimini nazorat qilish uchun antihipertenziv preparatlar va tutqanoqlarni oldini olish uchun magnezium sulfat qo'llaniladi.

Homiladorlikni boshqarish: Preklampsiyaga ega bo'lgan ayollarda tug'ruqni boshqarish va zarurat tug'lsa tug'ruq jarayonini sun'iy yo'l bilan tezlashtirish tavsiya etiladi, chunki bu asoratlarda ona va bola uchun hayotiy xavf tug'diradi. Postpartum kuzatish: Tug'ruqdan so'ng ham preklampsiya alomatlari saqlanib qolishi mumkin, shuning uchun postpartum davrda ayollar muntazam ravishda qon bosimi va sog'lig'ini kuzatishi zarur.

Bundan tashqari preklampsiyaning oldini olish va xavf omillarini nazorat qilish uchun bir qator choralar ko'rish mumkin:

- Tibbiy nazorat: Homilador ayollar muntazam ravishda shifokor kuzatuviga borishi va qon bosimini o'lchab turishi zarur. Bosimni o'z vaqtida nazorat qilish preklampsiyani oldindan aniqlashga yordam beradi.

- Oziqlanish va hayot tarzi: To'g'ri oziqlanish, sho'r va yog'li ovqatlardan saqlanish muntazam jismoniy faoliyat homiladorlikdagi salomatlikni ta'minlashga yordam beradi.

- Turmush Tarzi va Dietoterapiya. Jismoniy faollikni saqlash (aerob mashqlar endoteliy funksiyasini yaxshilaydi). Homiladorlik davrida vazn ortishini nazorat qilish.

- Dori vositalari: Yuqori xavfli guruhdagi homilador ayollarga past dozalarda aspirin yoki kaltsiy qo'shimchalari profilaktika uchun buyurilishi mumkin. **Preeklampsiyani davolash usullari** Preeklampsiyaning yengil shakllarini homiladorlik davomida tibbiy kuzatuv va antihipertenziv preparatlar bilan boshqarish mumkin. Og'ir shakllarda esa tug'ruq jarayonini tezlashtirish kerak bo'ladi. Ayrim hollarda ona va bola hayotini saqlab qolish uchun erta tug'ruq qilish talab etiladi. Bunda homilani yetuklashtirish uchun steroidlar qo'llanishi mumkin. **Eklampsiyani davolash** Eklampsiya paydo bo'lganda birinchi navbatda bemorning hayotini saqlab qolish choralari ko'riladi. Magnezium sulfat preparati tutqanoqlarni nazorat qilish va oldini olish uchun eng samarali dori vositasi hisoblanadi. Shuningdek, qon bosimini nazorat qilish uchun antihipertenziv preparatlar qo'llaniladi. Eklampsiyadan so'ng homilador ayolning tezkor ravishda tug'ruqni boshlashi yoki jarrohlik yo'li bilan bolani olibboshqarish mumkin. Og'ir shakllarda esa tug'ruq jarayonini tezlashtirish kerak bo'ladi. Ayrim hollarda ona va bola hayotini saqlab qolishtashlash tavsiya etiladi. Postpartum kuzatish. Preeklampsiya va eklampsiya bilan og'rikan ayollarda tug'ruqdan keyin ham qon bosimi va boshqa simptomlarni kuzatib borish kerak. Ba'zi hollarda bu kasallik tug'ruqdan keyin ham davom etishi va ona sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, tug'ruqdan keyingi nazorat, davo va rehabilitatsiya jarayonlari bemorning to'liq sog'ayishiga yordam beradi.

## **XULOSA**

Ushbu maqolada preklampsiyaning xavf omillari, uning rivojlanishiga olib keladigan asosiy faktorlar va ularga qarshi kurashish usullari haqida muhokama qilindi. Tadqiqotlar

natijalariga ko'ra, preklampsianing rivojlanishi yuqori qon bosimi, semizlik va yoshi katta bo'lgan ayollarda ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu omillarni aniqlash va ularga qarshi profilaktik choralarni amalga oshirish preklampsianing rivojlanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Preklampsyani erta aniqlashda qon bosimi monitoringi, siydikdagi oqsil miqdorini o'lchash va boshqa diagnostikmetodlar samarali bo'lishi mumkin. Biroq, bu usullarni boshqa tibbiy kuzatuv va testlar bilan birgalikda qo'llash kerak.

Ayniqsa, homilador ayollarni muntazam ravishda kuzatib borish va ularni kerakli davolash bilan ta'minlash preklampsianing xavfini kamaytiradi. Shuningdek, preklampsianing oldini olishda to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni kamaytirish va farmakologik davolash muhim rol o'ynaydi. Muntazam jismoniy mashqlar, sog'lom ovqatlanish va stressni boshqarish nafaqat preklampsianing oldini olishga, balki umumiy salomatlikni yaxshilashga ham yordam beradi. Bundan tashqari, farmakologik choralar, masalan, aspirin, va kengaytirilgan tibbiy nazorat homiladorlik davrida preklampsianing rivojlanishining oldini olishda samarali usullar sifatida ko'rsatilgan. Ularni to'g'ri va muntazam qo'llash ayol va bolaning salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. YA.N. Allayorov. "Onalikda hamshiralik parvarishi" Toshkent 2012
2. YA.N. Allayorov "Akusherlik" Toshkent, 2008
3. M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova "Ginekologiya" Toshkent, 2007.
4. YA.N.Allayorov "Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya" Toshkent, "Istiqlol" nashriyoti 2005 yil.
5. A.A. Qodirova, M.X.Kattaxo'jaeva "Akusherlik amaliyoti", Toshkent, 2001
6. Smith, J., & Brown, A. (2020). Hypertension and preeclampsia: Risk factors and prevention strategies. *Journal of Obstetrics and Gynecology*, 45(3), 235-242. <https://doi.org/10.1016/j.jog.2020.01.003>
7. Choi, S. S., & Lee, S. H. (2019). Preeclampsia: Diagnosis, treatment, and management approaches. *The Journal of Maternal-Fetal & Neonatal Medicine*, 32(1), 55-61. <https://doi.org/10.1080/14767058.2018.1435502>